



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘sishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

Shunday qilib, korxonalar bozor transformatsiya sharoitida bozor dunyo talablariga javob berishlari uchun nafaqat eng yangi texnologiyalarga amal qilish, balki axborot madaniyatini to‘liq o‘zgartirish kerak.

Mamlakatning jahon miqyosida obro‘cini yuksaltirish, mavqeyini mustahkamlash va shaffoflikni ta‘minlash uchun xalqaro reytinglarning o‘rni muhim. 2025-yilgi xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rni sezilarli darajada ko‘tarildi. Xususan, Jahon bankining “GovTech Enablers” indeksiga muvofiq, bozor ko‘nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar bo‘yicha mamlakatimiz 2020-yilga nisbatan 75 pog‘ona yuqoriladi [4]. “GovTech Maturity Index” natijalariga ko‘ra, hukumat va davlat xizmatlari sektori bo‘yicha esa 40 pog‘ona yuqorilab, 198 mamlakat ichida bozor transformatsiya sohasida yetakchi mamlakatlar guruhiga kirdi.

Hozirda barcha rivojlangan mamlakatlarda takomillashib borayotgan bozor texnologiyalar O‘zbekistonning barcha viloyatlari charm-poyabzal sanoati korxonalariga, jumladan Andijon viloyati korxonalariga ham ushbu texnologiyalarni joriy etishga undamoqda. Iste‘molchilar fikrlarini, istaklarini tezkor o‘rganish, bozorni holatini tadqiq etish va unga tezkor moslashish, “Customizatsiya”ni joriy etish, ishlab chiqarishni robotlashtirish, mahsulotni loyihalashda tayyor dasturlardan foydalanish uchun korxona faoliyatiga bozor sifat menejmeti tizimini joriy etish muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Международный стандарт ISO 9001:2015 системы менеджмента качества. Требования.
2. Мельникова, Д. И. Система менеджмента качества в условиях цифровизации: проблемы и перспективы развития / Д. И. Мельникова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 47 (389). — С. 109-111. — URL: <https://moluch.ru/archive/389/85693/>
3. O‘zbekiston respublikasi huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
4. 2022 GovTech Maturity Index Update GTMI (worldbank.org) [elektron resurs].

UDK: 332.1

**SHA HARLAR VA SHA HAR AGLOMERATSIYALARI MINTAQALAR VA
MAMLAKATLAR IJTIMOIIY-IQTISODIIY RIVOJLANISHINING DRAYVERI**

**ГОРОДА И ГОРОДСКИЕ АГЛОМЕРАЦИИ ДРАЙВЕР СОЦИАЛЬНО-
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ И СТРАН**

**CITIES AND URBAN AGGLOMERATIONS AS DRIVERS OF SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT OF REGIONS AND COUNTRIES**

Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining milliy va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi drayverlik (harakatlantiruvchi kuch) roli ilmiy tahlil qilingan. Urbanizatsiya jarayonlari zamonaviy iqtisodiyotda shunchaki aholi punktlarining shakllanishi emas, balki innovatsion salohiyat, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlikning asosiy manbai sifatida qaraladi. Maqolada shahar tizimlarining mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘siri, aglomeratsiyalarda "shahar samarasi" (agglomeration economy) va resurslarning konsentratsiyasi iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi omil ekanligi nazariy jihatdan asoslangan. Tadqiqot doirasida urbanizatsiyani strategik boshqarish, infratuzilma integratsiyasi va innovatsion ekotizimlarni yaratish orqali hududlar barqarorligini ta‘minlashning mexanizmlari yoritilgan. Maqola

yakunida shahar aglomeratsiyalarini mintaqaviy rivojlanishning lokomotivi sifatida faoliyat yuritishini ta'minlovchi samarali boshqaruv yondashuvlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: shahar aglomeratsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy drayver, urbanizatsiya, mintaqaviy raqobatbardoshlik, strategik boshqaruv, innovatsion salohiyat, tizimli barqarorlik.

В данной статье представлен научный анализ драйверной роли городов и городских агломераций в национальном и региональном социально-экономическом развитии. Процессы урбанизации в современной экономике рассматриваются не просто как формирование населенных пунктов, а как основной источник инновационного потенциала, производства продукции с высокой добавленной стоимостью и конкурентоспособности. В статье теоретически обосновано влияние городских систем на региональную экономику, а также то, что "эффект города" (agglomeration economy) и концентрация ресурсов в агломерациях являются факторами, ускоряющими экономический рост. В рамках исследования освещены механизмы обеспечения устойчивости регионов посредством стратегического управления урбанизацией, интеграции инфраструктуры и создания инновационных экосистем. В заключение статьи предлагаются эффективные подходы к управлению, обеспечивающие функционирование городских агломераций в качестве локомотива регионального развития.

Ключевые слова: городская агломерация, социально-экономическое развитие, экономический драйвер, урбанизация, региональная конкурентоспособность, стратегическое управление, инновационный потенциал, системная стабильность.

This article provides a scientific analysis of the driving role of cities and urban agglomerations in national and regional socio-economic development. In the modern economy, urbanization processes are viewed not merely as the formation of settlements, but as a primary source of innovative potential, high-value-added production, and competitiveness. The article theoretically substantiates that the impact of urban systems on regional economies, the "urban effect" (agglomeration economy), and the concentration of resources in agglomerations are factors that accelerate economic growth. The study highlights mechanisms for ensuring regional sustainability through strategic urbanization management, infrastructure integration, and the creation of innovative ecosystems.

The study highlights mechanisms for ensuring regional sustainability through strategic urbanization management, infrastructure integration, and the creation of innovative ecosystems. At the end of the article, effective management approaches are proposed to ensure that urban agglomerations function as the locomotive of regional development.

Keywords: urban agglomeration, socio-economic development, economic driver, urbanization, regional competitiveness, strategic management, innovative potential, systemic sustainability.

Hududlar va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o'rnini, avvalo, shahar hududida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlar uchun yuzaga keladigan aglomeratsiya samaralari bilan belgilanadi. Ushbu samaralar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida xarajatlarning kamayishi, mehnat bozorining kengayishi hamda bilim va innovatsiyalarning tezroq tarqalishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, shaharlar mintaqaviy va milliy iqtisodiyotda yuqori iqtisodiy faollik jamlangan hududlar sifatida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda aglomeratsiya samaralarining ikki asosiy turi ajratib ko'rsatiladi. Ulardan birinchisi shahar miqyosi, ya'ni aholi sonining kattaligi bilan bog'liq bo'lib, urbanizatsiya iqtisodiyoti (urbanization economiyes) deb ataladi. Mazkur samaralar yirik shaharlar sharoitida infratuzilmaning nisbatan samarali ishlashi, mehnat resurslarining diversifikatsiyalashuvi va bozorlar hajmining kengayishi bilan izohlanadi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, shahar aholisi sonining ikki barobarga ortishi mehnat unumdorligining 2–5 foizga o'sishiga olib keladi. Bu holat urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sirini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [1].

Aglomeratsiya samaralarining ikkinchi turi shahar hududida muayyan iqtisodiy faoliyat turi yoki iqtisodiy klasterning rivojlanish ko‘lami bilan bog‘liq bo‘lib, mahalliyashtirish iqtisodiyoti (localization economiyes) yoki ixtisoslashuv samaralari sifatida tavsiflanadi. Ushbu ta’sirlar bir xil yoki o‘zaro bog‘liq tarmoqlarning hududiy jihatdan jamlanishi natijasida yuzaga keladi va ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mahalliyashtirish iqtisodiyoti, ayniqsa, aholi soni nisbatan kam bo‘lgan shaharlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularga alohida tarmoqlar yoki klasterlar doirasida yuqori darajadagi unumdorlikka erishish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda aglomerasion ta’sirlarning asosiy manbalari sifatida tutashlik, birgalikda foydalanish va o‘rganish omillari ajratib ko‘rsatiladi. Tutashlik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish subyektlarining hududiy yaqin joylashuvi natijasida transport va tranzaksiya xarajatlarining kamayishida namoyon bo‘ladi. Birgalikda foydalanish umumiy infratuzilma, malakali mehnat resurslari va ixtisoslashgan xizmatlardan bir vaqtning o‘zida foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi. O‘rganish esa bilim, tajriba va innovatsiyalarning subyektlar o‘rtasida tezkor tarqalishini anglatib, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi. Mazkur uch omilning o‘zaro uyg‘unligi shaharlar va shahar aglomeratsiyalarini nafaqat umumiy iqtisodiy o‘sish markazlariga, balki muayyan tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashgan raqobatbardosh hududlarga aylantiradi. Natijada, mahalliyashtirish iqtisodiyoti mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Aholi va iqtisodiy faoliyatning yuqori konsentratsiyasi mavjud bo‘lgan shahar hududlarida bilim, tajriba va innovatsiyalarning tarqalish jarayoni ancha tezlashadi. Innovatsion faoliyatning shaharlarda jamlanishi bunday hududlarda tez rivojlanayotgan firmalar ulushining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtiradi. Shu nuqtai nazardan, shaharlar va shahar aglomeratsiyalari hududida aglomeratsiya samaralarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Infratuzilmani rivojlantirish, ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish va innovatsion muhitni rag‘batlantirish orqali shaharlar mintaqaviy va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish drayverlariga aylanishi mumkin [3].


1970-yillarning o‘rtalarida ilmiy adabiyotlarda “shaharning optimal kattaligi” masalasi bo‘yicha munozaralar faollashdi. Ushbu nazariy yondashuvga ko‘ra, shahar ma’lum bir o‘lchamga yetganda iqtisodiy afzalliklar bilan bog‘liq ijobiy samaralar va yirik shaharlarga xos bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik xarajatlar o‘rtasida muvozanat shakllanadi va aynan shu holat optimal hisoblanadi. Ya’ni, shahar hajmining ortishi bir tomondan ishlab chiqarish samaradorligi va xizmatlar xilma-xilligini oshirsa, ikkinchi tomondan infratuzilma yuklamasi, ekologik bosim va ijtimoiy muammolarning kuchayishiga olib keladi. 2000-yillarda ushbu masalaga qiziqish yana kuchaydi va “shaharning optimal o‘lchami” nazariyasi zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqildi. Xususan, Valter Kristallerning markaziy o‘rinlar nazariyasi hamda “shahar tarmoqlari” konsepsiyasining neoklassik talqini doirasida olib borilgan tadqiqotlar ushbu nazariyaga yangi mazmun bag‘ishladi. Ushbu yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, shahar hajmi uning iqtisodiy faoliyati, xizmatlar ko‘rsatish salohiyati va hayot sifati kabi miqdoriy hamda sifat ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, biroq shahar aholisining aniq optimal sonini belgilash ilmiy jihatdan mumkin emas. Mazkur xulosaga ko‘ra, muammo shahar aholisining sonida emas, balki shahar va umuman shaharlar tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Bunda shaharning qanday funksiyalarni bajarishi, qanday mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishi, shuningdek, ularning hududiy va iqtisodiy tizimdagi o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda shaharlarning rivojlanishida xizmatlar sohasining ustuvorligi kuchayib borayotganligi, “optimal kattalik” tushunchasini qat’iy demografik mezonlar asosida emas, balki funksional va tizimli samaradorlik nuqtai nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadi [4].

taraqqiyot, bilimlar, innovatsiyalar va boshqaruv samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri klassik omillarga nisbat berib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy shahar iqtisodiyotida intellektual va ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi innovatsion salohiyatni oshiradi, bilimlarning tez tarqalishini ta’minlaydi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratilishiga zamin yaratadi.

Aynan shaharlar va shahar aglomeratsiyalari bunday faoliyat turlari uchun qulay muhitni shakllantiradi, chunki bu hududlarda mehnat bozori keng, bilim va texnologiyalar almashinuvi jadallashgan hamda aglomeratsiya samaralari kuchli namoyon bo‘ladi. Natijada, shahar iqtisodiyotining resursiga emas, balki bilim va xizmatlarga yo‘naltirilgan modeli uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘rni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi [5].

Boshqacha aytganda, qiymat yaratish modellaridagi tub o‘zgarishlarga olib keladigan innovatsiyalar, bir tomondan, ko‘pincha oldindan rejalashtirilmagan holda yuzaga keladi, ikkinchi tomondan esa, o‘z ta‘sirini iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga yoyadi. Shu sababli innovatsiyalarni alohida ishlab chiqarish omili sifatida qat‘iy chegaralash yoki ularni yaratish jarayonini aniq funksional bog‘liqliklar orqali ifodalash imkoniyati mavjud emas. Ya‘ni, “innovatsiya funksiyasi”ni aniqlash — innovatsiyani ishlab chiqarish uchun qancha va qanday omillar zarurligini, shuningdek, u paydo bo‘lgach, aynan qaysi mahsulotda yoki qo‘shilgan qiymatda qanday shaklda namoyon bo‘lishini oldindan belgilash ilmiy jihatdan murakkab, ba‘zan esa imkonsizdir. Innovatsiyalarning bunday xususiyatini sanoat taraqqiyoti tarixidagi muhim misollar orqali yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, konveyer usulining joriy etilishi avtomobil ishlab chiqarish modelini tubdan o‘zgartirdi: ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan omillar tarkibi va ularning nisbatlari qayta shakllandi, mehnat unumdorligi keskin oshdi hamda mahsulot tannarxi sezilarli darajada pasaydi.

Mazkur shahar rivojlanish modellari nafaqat nazariy konseptuallashtirish darajasida, balki amaliyotda joriy etish tajribasida ham o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, shahar rivojlanishida ekologik omillarning ustuvorligini ta‘kidlaydigan modellarni tavsiflashda turli, ammo mazmunan o‘zaro yaqin bo‘lgan terminlar qo‘llaniladi. Bular qatoriga “ekoshaharlar”, “yashil shaharlar”, “sog‘lom shaharlar”, shuningdek “uglerod neytral shaharlar” tushunchalari kiradi. Ushbu yondashuvlar shaharlarning ekologik barqarorligini ta‘minlash, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish hamda aholining sog‘lom yashash muhitini shakllantirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, innovatsiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi yetakchi omil sifatida namoyon bo‘ladigan shahar rivojlanish modellari ham keng tarqalgan.



1-rasm. Shahar rivojlanishida yetakchi drayver [1]

Yangi urbanizm shaharlarni loyihalashtirish va shahar makonini tashkil etishning modernistik tamoyillarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish to‘lqinida paydo bo‘lmoqda. Modernistik shaharsozlik paradigmasining yetakchi mafkurachilaridan biri Le Korbyuze shahar rivojlanishining eng muhim xususiyati sifatida vorisiylikni rad etib, avtomagistrallar orasida erkin tartibda joylashgan baland turar-joy "minora"laridan iborat yangi "Nurli shahar" barpo etish g‘oyasini ilgari surdi. Le Korbyuzening shaharsozlik konsepsiyasi keyinchalik asossiz ravishda "radikal" nomini oldi, chunki u "eski" binolarni buzib tashlash va ularning o‘rniga yangilarini qurishni nazarda tutgan[6]. Kanadalik-amerikalik urbanist va shaharliklar huquqlari uchun kurashchi J.Jekobsning mashhur va ko‘p tillarda bir necha bor qayta nashr etilgan kitobi bosilib chiqishi bilan urbanistik qarashlarning "qayta shakllanishi" — ijtimoiy yo‘naltirilgan burilish boshlandi. J.Jekobs shaharni rejalashtirishni bu jarayonga shaharliklarning o‘zlarini jalb qilmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi, deb hisoblagan [7].

Bundan tashqari, jamoat joylarini obodonlashtirish, piyodalar va velosipedchilar uchun qulay harakatlanish sharoitlarini yaratish sog‘lom shaharlarni shakllantirishga yordam beradi. Piyoda, velosipedda (samokat, rolikli konkida) harakatlanish, avtotransport harakatini kamaytirish orqali hududning umumiy ekologik farovonligiga sezilarli hissa qo‘shishdan tashqari, tabiiy ravishda ularning tibbiy xizmatlarga xarajatlarini kamaytirish orqali shahar aholisining salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan, velosiped va piyoda yurish madaniyati shahar sog‘liqni saqlash siyosatining muhim elementi sifatida ham ko‘rib chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OECD, 2015, Governing the City, Organisation for Economic Co-Operation and Development (OECD)
2. Puga D. The Magnitude And Causes of Agglomeration Economies // Journal of Regional Science. 2010. N 50 (1). P. 203–219.
3. The State of European Cities 2016. Cities leading the way to a better future. European Commission/ UN HABITAT, 2016.
4. Обзор классических и современных теорий «оптимального размера города» представлен в докладе: Holzer M. et al. Literature Review and Analysis Related to Optimal Municipal Size and Efficiency, Rutgers School of Public Affairs and Administration. 2009. URL: http://www.state.nj.us/dca/affiliates/luarcc/pdf/final_optimal_municipal_size_&_efficiency.pdf.
5. Solow R. M. Growth Theory — An Exposition. Oxford University Press, 1970 (2nd ed. — 2006).
6. Le Corbusier. (1935). La Ville Radieuse (Nurli shahar). Paris: Éditions de l’Architecture d’Aujourd’hui.
7. Jacobs, J. (1961). The Death and Life of Great American Cities. New York: Random House.

УДК: 338.24

**РАҚАМЛИ ТЕНГСИЗЛИК: ДАВЛАТЛАР ВА ТАРМОҚЛАР ЎРТАСИДАГИ
ТЕХНОЛОГИК УЗИЛИШЛАРНИ КАМАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

**ЦИФРОВОЕ НЕРАВЕНСТВО: СПОСОБЫ СОКРАЩЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО
РАЗНИЦА МЕЖДУ СТРАНАМИ И СЕТЯМИ**

**DIGITAL INEQUALITY: WAYS TO REDUCE THE TECHNOLOGICAL DIVAS
BETWEEN COUNTRIES AND NETWORKS**

Эгамназарова Г.Ш. ЎзМУ талабаси

Аннотация

Ушбу мақола давлатлар ва турли тармоқлар ўртасидаги рақамли тенгсизлик муаммосини ҳамда унинг иқтисодий ва ижтимоий таъсирини ўрганишга бағишланган. Шунингдек, мақолада рақамли тафовутнинг асосий сабаблари таҳлил қилиниб, давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларнинг салбий оқибатларини камайитириш ҳамда рақамли инклюзивликни таъминлаш бўйича самарали ёндашувлар кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: рақамли тенгсизлик, рақамли инфратузилма, рақамли кўникмалар, рақамли инклюзивлик, иқтисодий ривожланиш.

Данная статья посвящена проблеме цифрового неравенства между государствами и различными отраслями, а также изучению его экономического и социального влияния. Также, в статье проанализированы основные причины цифрового неравенства, уменьшения негативных последствий технологических разрывов между государствами и отраслями, также рассмотрены эффективные подходы по обеспечению цифровой инклюзивности.